

Dastlabki ma'lumotlar

## Xizmatlar sohasining rivojlanishi – Samarqand viloyati farovonligining asosi

Iqtisodiy rivojlanishning zamонавиј шароитида xizmatlar sohasi iqtisodiy siyosatning barcha darajalarida muhim elementga aylanmoqda. Bugungi kunda bu sohani tijorat va ijtimoiy asosda ko'rsatiladigan barcha turdagи xizmatlarni o'z ichiga olgan iqtisodiyotning gipersektori deb atash mumkin.

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.

Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslarga - yakuniy iste'molchilarga ham taqdim etiladigan tayyor mahsulot emas, balki xizmatlar ko'rsatish hisoblanadi.

Xizmatlar sohasi ko'lami juda turli xildir. Bunga tovarlarni yetkazib beruvchidan buyurtmachiga yetkazib berish va transportirovka qilish, hamda, ko'ngilochar tadbirlarni o'tkazish ham kiradi. Shuningdek, sartaroshxonalar, restoranlar, ta'mirlash ustaxonalari, sport klublari, sayyoqlik firmalarini va hokazolarni o'z ichiga oladi.



### 2019-yil yanvar-dekabr oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

12 271,1 mird. so'm



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

3 196,9 ming so'm



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

108,9 %



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajming o'sish sur'ati

152,2 %



Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati


25,7 %



Xizmatlarning umumiy hajmida transport xizmatlarining ulushi

Dastlabki ma'lumotlar


2020-yil 1-yanvar holatiga viloyatda jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 31,4 ming birlikka yetdi.



Xizmatlar sohasida jami 20,4 ming birlik korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 25,1 % ga oshdi.

2020-yil 1-yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 65,0 % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: kuzatilayotgan davrda sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi - 19,0 %, qurilish - 8,7 % ga yetdi va atiga 7,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi hissasiga to'g'ri keldi.



*Dastlabki ma'lumotlar*


2020-yil 1-yanvar holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar (38,2 %) yuqori ulushni egallaydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning soni 11,8 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi va xizmatlar sohasidagi tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi ularning umumiyligi sonida 4,7 % ga yetdi.

Sog'lijni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 2,4 % ga teng bo'ldi.



O'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 4,1 ming birlikka ko'paydi.

Dastlabki ma'lumotlar

Zamonaviy tadbirkorlik ommaviylashmoqda, bu birinchi navbatda xizmatlar sohasining rivojlanishi yoki, aniqrog'i, kichik tadbirkorlik subyektlarining aniq miqdoriy ustunligi bo'lgan ushbu sohada kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliyati uchun yaratilgan imkoniyatlar bilan bog'liq.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlar hisoblanadi. Xizmatlar nafaqat korxonalarga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.



**O'sish sur'ati  
108,9 %**

**Hajmi 1 136,8  
mlrd. so'mga  
oshdi**

**Xizmatlar hajmi  
12 271,1  
mlrd. so'm**

Shunday qilib, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 12 271,1 mlrd. so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 8,9 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*


Hududiy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishda hududiy innovatsion tizim muhim rol o'ynashi kerak. Bu innovatsion jarayonlar ishtirokchilari (ilmiy, texnologik, tajriba-konstrukturlik tashkilotlari, o'quv muassasalari va korxonalarning ilmiy bo'limgari, infratuzilma bo'linmalari, moliyaviy, vechur va amalga oshirish tuzilmalari), davlat organlari, shuningdek, institutsional sharoitlar, resurslar, tashkiliy va iqtisodiy aloqalar va munosabatlarning muayyan majmuasi va oqilona birikmasi bo'lib, yangi ilmiy-texnik ishlanmalarni jadal va doimiy ravishda yaratish maqsadida, ularni tanlab oladi, ularni amaliy foydalanish va bozorga raqobatdosh texnologiyalar, tovarlar, xizmatlar va ularni keng tarqatish shaklida olib borish uchun ushbu ishtirokchilarning doimiy barqaror hamkorligini ta'minlaydi.

Xizmatlarning umumiy hajmida Samarqand shahrining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 64,0 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa hududlardan ko'ra yuqoriq ekanligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, eng katta ulush Samarqand (3,7 %), Pastdarg'om (2,9 %) va Urgut (2,8 %) tumanlarida qayd etildi.

### **Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %**

*(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)*



*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Paxtachi (1,8 %), Qo'shrabot (1,8 %) va Nurobod (2,1 %) tumanlari kuzatildi.

Ushbu davrda yuqori o'sish sur'atlari Samarqand (108,5 %), Urgut (108,3 %), Tayloq (108,2 %) tumanlari va Samarqand shahrida (109,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Aholi jon boshiga hajmi, ming so'm
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>12 271,1</b>	<b>108,9</b>	<b>3 196,9</b>
Samarqand shahri	7 857,9	109,8	14 484,5
Kattaqo'rg'on shahri	267,3	107,1	3 010,2
tumanlar:			
Oqdaryo	281,4	106,7	1 791,1
Bulung'ur	277,4	106,5	1 503,5
Jomboy	304,7	107,3	1 795,6
Ishtixon	303,4	106,8	1 211,3
Kattaqo'rg'on	277,3	106,7	1 028,7
Qo'shrabot	218,8	106,2	1 686,8
Narpay	268,7	107,4	1 276,6
Payariq	281,5	107,5	1 140,1
Pastdarg'om	358,7	107,7	1 026,0
Paxtachi	217,3	105,7	1 523,8
Samarqand	449,4	108,5	1 805,7
Nurobod	257,6	106,7	1 734,5
Urgut	343,7	108,3	686,2
Tayloq	306,0	108,2	1 543,9

Dastlabki ma'lumotlar

Nisbatan past o'sish sur'atlari Paxtachi (105,7 %), Qo'shrabot (106,2 %) va Bulung'ur (106,5 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rilibotgan davrda hududlar bo'yicha Samarqand shahrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu hududda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1 479,4 mlrd. so'mga oshdi va 7 857,9 mlrd. so'mga yetdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (449,4 mlrd. so'm), Pastdarg'om (358,7 mlrd. so'm) va Urgut (343,7 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

Xizmatlar sohasidagi aksariyat faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyati - bu mahalliylashtirishning yuqori darajasi, ma'lum bir hududga (hudud, shahar, tuman, shahar va qishloq aholi punktlari) bog'liqligi hisoblanadi. Shu sababli, faoliyatning hajmi, joylashishi, faoliyat turlari va ko'lamlari, mulkchilik shakllari, korxonalar va xizmat ko'rsatish tashkilotlarining ish uslublari, ularning modernizatsiya qilishdagi roli va rivojlanish potentsiali mintqa iqtisodiyotidagi innovatsion o'zgarishlarning ehtiyojlari, ustuvorliklari va strategiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.

O'tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 525,4 ming so'mga oshdi va 3 196,9 ming so'mga teng bo'ldi, uning o'sishi 6,6 % ni tashkil etdi.

---

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi -  
3 196,9 ming so'm**

---

**2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan**




Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Keyinchalik yangi ish o'rinnlarini yaratish orqali iqtisodiyotni barqaror o'sishini ta'minlash, investitsiya, soliq, pul-kredit davlat siyosatini, fan va texnik siyosatini takomillashtirish va yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash orqali kichik biznesni rivojlantirish bozor xizmatlarining tarmoqlar tarkibida, sifatli tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

Ushbu ko'rsatkich bo'yicha Samarqand shahri yetakchi o'rinni egallaydi. Bu yerda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 14 484,5 ming so'm ekvivalentida qayd etildi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar, ming so'm  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**




Urgut (686,2 ming so'm), Pastdarg'om (1 026,0 ming so'm) va Kattaqo'rg'on (1 028,7 ming so'm) tumanlarida boshqa hududlarga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi past bo'ldi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot va aloqa xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televidenie va boshqalar) kabi zamonaviy xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 29,0 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (25,7 %), moliyaviy xizmatlar (12,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha (5,0 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



*Dastlabki ma'lumotlar*

Shuningdek, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar - 1,2 %, sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar - 1,5 %, kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar - 2,8 % uncha yuqori bo'limgan ulush qayd etildi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>12 271,1</b>	<b>108,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	613,0	109,1
Moliyaviy xizmatlar	1 573,5	152,2
Transport xizmatlari	3 155,0	102,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	2 874,3	101,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	398,4	108,7
Savdo xizmatlari	3 559,1	103,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	375,3	100,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	584,2	105,2
Sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	178,4	108,3
Ijara xizmatlari	406,2	102,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	348,4	100,7
Shaxsiy xizmatlar	520,0	101,3
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	142,5	110,8
Boshqa xizmatlar	417,1	109,1

Dastlabki ma'lumotlar

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (152,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (110,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (109,1 %) qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari, %  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Yuqori bo'limgan o'sish kompyuter va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (100,7 %), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda (100,7 %) belgilandi.

Dastlabki ma'lumotlar

Ta'kidlash joizki, transport xizmatlari hajmining o'sishi, birinchi navbatda, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan boqliq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

### Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, %

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



91,1 %

8,9 %

Avtotransport  
xizmatlari

Boshqa transport  
faoliyati

Transport xizmatlari umumiyligi hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 91,1 % ni tashkil etadi.

O'z navbatida, transport xizmatlari umumiyligi hajmida boshqa transport faoliyati esa – 8,9 % qayd etildi.

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmida yo'lovchilarni tashish katta ulushga ega. Shunday qilib, 2019-yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining ulushi 71,6 % ga yetdi.

Dastlabki ma'lumotlar

Avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida yuk tashish xizmatlari ulushi 28,4 % ni tashkil etdi.

**Tashish turlari bo'yicha avtomobil transportida  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %  
(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)**




Savdo - bu tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Bir mamlakatning boshqa davlatlarlar bilan tovarlar importi va eksportidan iborat bo'lgan savdosi tashqi savdo, turli mamlakatlarning bir-biri bilan umumiy savdo-sotig'i xalqaro savdo hisoblanadi. Ma'lum bir davlat ichida savdo ijtimoiy zarur iste'molchiga tovarlarni yetkazib berish funksiyani bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

Savdo shu jumladan, elektron xizmatlarining yalpi ishlab chiqarilgan hajmi joriy narxlarda yalpi daromadi, ya'ni sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati aks ettiriladi. Tovarlarni boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalar komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotish bo'yicha bitim tuzilgan taqdirda, xizmatlar qiymatida mukofot miqdori aks ettiriladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi savdo xizmatlarining ulushi 29,0 % ni tashkil etib, bu 3 559,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

Chakana savdo xizmatlari umumiyligi savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rtdan uchi – 75,5 % ga to'g'ri keladi.



2019-yil yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 14,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiyligi hajmidagi ulushi 9,8 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan raqamli banklar va ularning bo'linmalarining faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Dastlabki ma'lumotlar

2019-yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1 573,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 575,8 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 52,2 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi -  
1 573,5 mlrd. so'm

O'sish sur'ati -  
152,2 %

Xizmatlarning umumiyligi hajmida ulush -  
12,8 %



Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 91,4 % ni tashkil etadi. Joriy davrda sug'urta xizmatlarning ulushi 5,1 % oralig'ida qayd etildi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar umumiyligi moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori salmog'ga ega emas va u 3,5 % ni tashkil etadi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)

91,4 %

5,1 %

3,5 %

Sug'urta va  
nafaqa ta'minoti  
bo'yicha  
xizmatlardan  
tashqari moliyaviy  
xizmatlar

Sug'urta bo'yicha  
xizmatlar

Yordamchi  
moliyaviy faoliyat

Dastlabki ma'lumotlar

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnologiyalari va aloqa vositalari bilan jihozlanganligi kuzatilmoqda.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 613,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagи xizmatlarning o'sish sur'ati 109,1 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi ulushi 5,0 % ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi -  
613,0 mlrd. so'm

O'sish sur'ati -  
109,1 %

Xizmatlarning umumiyligi hajmida ulushi -  
5,0 %

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli sohalarda yuqori malakali mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi.

#### Ta'lif sohasidagi xizmatlar



Dastlabki ma'lumotlar

2019-yil yanvar-dekabr oylarida ta'lif sohasidagi xizmatlar hajmi 584,2 mlrd. so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish 5,2 % ni tashkil etdi.

2018-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil etdi, hajmi esa 78,9 mlrd. so'mga oshdi va 398,4 mlrd. so'mga yetdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar umumiyligi hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 76,4 % bilan ustunlik qiladi.

2019-yil yanvar-dekabr oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 23,6 % ni tashkil etdi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %

(2019-yil yanvar-dekabr oylarida)



Dastlabki ma'lumotlar

Ushbu turdag'i xizmatlarning o'sishiga dam olish uylari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan aholining talabi o'z hissasini qo'shdi.

Sog'lijni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiyot xodimlari mehnatini rag'batlantirish, zamonaviy texnologiyalar va davolash usullarini keng joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.



2019-yil yanvar-dekabr oylarida sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 18,0 mldr. so'mga oshdi va 178,4 mldr. so'mga yetdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,3 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxona va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

## Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-85-35